Ipoteka obligatsiyalarining mamlakat iqtisodiyotining o'sishidagi ahamiyati hamda mazkur obligatsiyalar bilan bog'liq risklar	1343
Ibrohimov Yorqinjon To'liqin o'g'li	
Анализ спроса и потребительского поведения на продукцию, выращенную гидропонным методом	1349
Дурманов Акмал Шаймарданович	
Global moliyaviy inqirozlar sharoitida aholi daromadlarining barqarorligini ta'minlash strategiyalari.....	1355
Qurbanov Ulug'bek Erkinovich, Nutfullayev Shohrux Mexli o'g'li	



“O‘zbekistonning “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi: mavjud muammo va istiqbolli imkoniyatlar”	1359
Ismailov Dilshod Anvarjonovich, Akramova Aziza Abduvohidovna	
Aksiyadorlik jamiyatlarida davlat xaridlarini tashkil etish amaliyotini takomillashtirish.....	1366
Saidaxmedova Aida Mirzayevna	
O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish masalalari	1372
Abduraxmonova Ziyoda Abdullayevna	
Netto ish haqini hisoblashning innovatsion usullari.....	1378
Mirmahmudov Murod Ismatovich	
Xizmat ko‘rsatish sohasida tadbirkorlik: iqtisodiy va ijtimoiy istiqbollar	1383
Xaydarova Shoxista Davranovna	
Texnologiya fanida sun‘iy intellekt va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish	1388
Ashurov Nazar Raxmatullaevich	
Korporativ xaridlarni amalga oshirishdagi byurokratik to‘siqlar va ularni bartaraf etish usullari	1391
Qurbanov Shohboz Lutfillayevich	
Yashil yondashuvlar asosida barqaror iqtisodiyotni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	1396
Ubaydullaev No‘monjon Isroilovich	
Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini SWOT va pestel tahlil qilish orqali iqtisodiy bashoratlash.....	1401
Karimova Maftuna Nurdinovna	
O‘tkir revmatik isitmasi bor bolalarda kardiometriya ko‘rsatkichlarining statistik tahlili	1407
Muxamadiyeva Lola Atamuradovna	
Ways to develop digital economy and electronic government in UZBEKISTAN	1418
Nuriddinova Dilshodaxon Abdulla kizi	
O‘zbekistonda hayot sug‘urtasining joriy etilishi va unga ta’sir etuvchi demografik omillar ta’siri.....	1422
Mirzamahmudova Madina Odiljon qizi	
Global iqlim o‘zgarishining turizm sektoriga ta’siri: muvofiqlashtirish va barqarorlikka erishish strategiyalari	1428
Karimova Shaxnoza Uktamovna	
Prospects for the development of islamic microfinance services in uzbekistan.....	1433
Sadullaeva Gulnoza Usmanovna	
Global iqlim o‘zgarishi riski uning mamlakat iqtisodiyoti moliyaviy sektoriga ta’siri	1439
Baratov Sa’dulla Norjigit o‘g‘li, Jo‘rayev Behzod Nuraliyevich	
Перспективы унификации налогов на землю и имущество	1444
Акбарова Нилуфар Нейматжановна	
Banklarda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) asosida hisobot tuzish tartibi	1449
Arziboyeva Ravzaxon Sattarovna	
Kichik biznes subyektlari iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash mexanizmini takomillashtirish	1454
Akbarov Abdulhamid Akmal o‘g‘li	
O‘zbekiston Respublikasi hududlarida demografik jarayonlarning dinamikasi tahlili	1458
Xamitova Mavluda Sindarovna	
Ta’minot zanjirlarini boshqarishda big datadan foydalanishni afzalliklari	1463
Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich, Quryazov Quryozbek Ergash o‘g‘li	
Yashil texnologiyalardan keng foydalanish – yashil investitsiyalarning poydevori.....	1467
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Raqamli transformatsiya sharoitida tijorat banklarining strategik boshqaruv tizimini takomillashtirish yo‘llari.....	1470
Umurov Jasurbek Jamil o‘g‘li	
Digital neighbourhood contexts in youth employment and competency frameworks	1474
Gulsara Ostonaikulova	
Роль организации антимонопольной политики в национальной экономике в обеспечении экономической безопасности и конкурентоспособности.....	1482
Глазова Марина Викторовна	
Rivojlangan sug‘urta bozorlarida investisiya faoliyati tahlili.....	1487
Suyunov Isomiddin Tilovkobilovich	



O'zbekiston respublikasida qurilish kompleksining hozirgi holati va asosiy rivojlanish tendensiyalari.....	1491
Muxibova Guli Yarkinovna	
Aholining turmush farovonligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli	1496
Ostanova Nargiza Baratovna	
Зеленое IPO как новый инструмент финансирования.....	1501
Шахзод Сайдуллаев	
Tadbirkorlik faoliyatini boshqarishda rahbarlik uslubi: demokratik rahbarlar.....	1508
Amonov Mehridin Oromiddinovich	
Korxonlarni rivojlantirishda yashil iqtisodiyot mexanizmlarini joriy etish	1513
Yusupov Bekzod Ulugbekovich	
O'zbekistonda sog'lomlashtirish turizmi infratuzilmasini rivojlantirishni ko'p omilli ekonometrik modellashtirish asosida prognozlash	1517
Norchayev Asatullo Norbo'tayevich	



O'ZBEKISTONDA SOG'LOMLASHTIRISH TURIZMI INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNI KO'P OMILLI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH ASOSIDA PROGNOZLASH



Norchayev Asatullo Norbo'tayevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professori, i.f.d. (DSc)

nanuz15@mail.ru

Annotatsiya: Ilmiy maqolada respublikamizda sog'lolashtirish turizmini rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan. Sog'lolashtirish turizmini tashkil qilishda turistik resurslar va infratuzilmaning holati, uning turistlarga xizmat ko'rsatish imkoniyatlari o'rganilgan. Shundan kelib chiqan holda maqolada respublikamizda sog'lolashtirish turizmi rivojlanish yo'nalishlarini aniqlash, turistlarga sifatli xizmat turlarini ishlab chiqish bo'yicha taklif va tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: turizm, sog'lolashtirish, resurs, infratuzilma, mehmonxona, kurort, xizmatlar.

Abstract: The scientific article conducts research on the development of health tourism in our republic. The state of tourist resources and infrastructure in the organization of health tourism, its capabilities for providing services to tourists, are studied. Based on this, the article presents proposals and recommendations for identifying areas for the development of health tourism in our republic, developing quality services for tourists.

Key words: tourism, wellness, resource, infrastructure, hotel, resort, services.

Аннотация: В научной статье проводится исследование развития оздоровительного туризма в нашей республике. Изучается состояние туристских ресурсов и инфраструктуры в организации оздоровительного туризма, рассматриваются их возможности по предоставлению услуг туристам. На основе проведенного анализа предложены рекомендации и предложения по выявлению направлений развития оздоровительного туризма и совершенствованию качества туристских услуг в республике.

Ключевые слова: туризм, оздоровление, ресурс, инфраструктура, отель, курорт, услуги.

KIRISH

Hozirgi kunda respublikamizda turizm infratuzilmasini rivojlantirishda yuzaga kelayotgan asosiy muammolardan biri – sog'lolashtirish turizmini rivojlantirish yo'nalishlarini ishlab chiqishda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlarni chuqur o'rganish masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda. Shu nuqtayi nazardan olib borilgan izlanishlarimiz ko'rsatadiki, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish maqsadida prognoz ma'lumotlaridan keng foydalanish tavsiya etiladi.

Bu borada 2022–2026-yillarga mo'ljallangan “Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”ning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida ko'zda tutilgan “O'zbekiston bo'ylab sayohat qiling” dasturi doirasida mahalliy turistlar sonini 12 millionga, xorijiy turistlar sonini esa 9 millionga yetkazish belgilangan bo'lib, mavjud infratuzilmani qayta ko'rib chiqish zarurati belgilab berilgan. Turistik xizmatlar sifatini oshirishda innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish orqali xorijiy turistlar oqimini keskin ko'paytirish, xizmatlar eksportini bir necha barobarga oshirish, mahalliy aholining daromadlarini ko'paytirish hamda xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish katta ahamiyatga ega¹.

¹ <https://lex.uz/>. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон фармони. (Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 29.01.2022 й., 06/22/60/0082-сон, 18.03.2022 й., 06/22/89/0227-сон, 21.04.2022 й., 06/22/113/0330-сон; 10.02.2023 й., 06/23/21/0085-сон; 03.01.2024 й., 06/24/221/0003-сон)



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-son², 2021-yil 9-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF–6165-son³ Farmonlari, 2023-yil 27-iyuldagi "Turizm yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–238-son⁴ hamda 2023-yil 26-apreldagi "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ–135-son⁵ qarorlarida belgilangan vazifalarning izchil amalga oshirilishi talab etiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Respublikamizda sog'lomlashtirish turizmini tashkil etish bo'yicha so'nggi yillarda bir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Yangi xizmat turlarini ishlab chiqish turlicha talqin qilinayotgan bo'lsa-da, ularning barchasi iste'molchiga yo'naltirilganligi bilan ahamiyatlidir. Biz ushbu yondashuvga asoslanib, maqsadga muvofiq erishishni ta'kidlab, sohada izlanishlar olib borgan olimlarning fikr va mulohazalarini tahlil qilish, ularni umumlashtirish va takomillashtirishga oid qarashlarimizni bayon qilamiz.

Sog'lomlashtirish turizmi yo'nalishida ilmiy izlanishlar jahondagi yetakchi ilmiy markazlar va ta'lim muassasalari, jumladan, *Harvard University*, *Princeton University*, *Stanford University*, *Universidad Complutense*, *Universidad de Las Palmas de Gran Canaria* (Ispaniya), *University of Münster* (Germaniya), *Korea Development Institute*, *Sejong University* (Janubiy Koreya), *Gazi University* (Turkiya) tomonidan olib borilmoqda.

Xuddi shuningdek, respublikamizda turizm sohasini rivojlantirish yo'nalishida ilmiy izlanishlar olib borgan olimlar – M.Q. Pardayev, O.H. Hamidov, A.A. Eshtayev, A.M. Abduvohidov, M.T. Aliyeva, B.N. Navro'z-zoda, D.X. Aslanova, O.M. Pardayev, B.H. To'rayev, B.Sh. Safarov, A.T. Mirzaev, N.S. Ibragimovlar sohaning taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shgan.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, sog'lomlashtirish turizmi, xususan sanatoriyalar, mehmonxonalar va dam olish maskanlarini rivojlantirish bo'yicha tizimli tadqiqotlar hanuzgacha yetarlicha olib borilmagan. Shu bois ushbu yo'nalishda keng ko'lamli izlanishlar o'tkazilishi lozim. Bu borada xalqaro tajriba asosida turistik xizmatlarning o'zaro uyg'un rivojlanishini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda sanatoriyalar, mehmonxonalar va dam olish maskanlarida turistlarga sifatli xizmat ko'rsatishni ta'minlash, kelajakdagi ehtimoliy o'zgarishlarni hisobga olish va sog'lomlashtirish turizmini infratuzilma darajasida kompleks yondashuv asosida tahlil qilish metodologiyasi qo'llanildi. Bu borada ilgari izlanish olib borgan olimlarning qarashlari asosida kuzatish, empirik tahlil, tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil va ekspert baholash kabi usullardan foydalangan holda turizm infratuzilmasining tarkibiy qismlarini rivojlantirish yo'nalishlari belgilandi.

Shuningdek, yaqin yillarda sog'lomlashtirish turizmini rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalarga doir xulosalar ishlab chiqildi va turistlarga xizmat ko'rsatishni takomillashtirishga qaratilgan aniq tavsiyalar ilgari surildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda mamlakatimizda turizmni va uning infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Turizmning iqtisodiy salohiyatini e'tirof etgan holda, hukumat mazkur sohani taraqqiy ettirish bo'yicha bir qator strategik rejalarni izchil amalga oshirmoqda. Jumladan, O'zbekistonning turizmni rivojlantirish milliy strategiyasida ob'ektlarni yaxshilash, turistik mahsulotlarni diversifikatsiya qilish va tashrif buyuruvchilarning umumiy tajribasini oshirish orqali mamlakatimizni yetakchi sayyohlik yo'nalishiga aylantirish asosiy maqsad etib belgilangan.

Bunday yutuqlarga qaramay, mamlakatimiz sayyohlik salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishda hali ham bir qator muammolar mavjud. Jumladan, turizm infratuzilmasini rivojlantirish, xususan sanatoriyalar, mehmonxonalar va kurort hududlarini barpo etish turizm industriyasining o'sishi va barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Masalan, sanatoriy muassasalari tashrif buyuruvchilarning umumiy tajribasi va xizmatdan qoniqish darajasiga bevosita ta'sir qiladi.

2 <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

3 <https://lex.uz/ru/docs/-5283956>

4 <https://lex.uz/ru/docs/-6549286>

5 <https://lex.uz/docs/-6456786>



Yaxshi tashkil etilgan turar joylar va dam olish maskanlari qulaylik, xizmatlar xilma-xilligi hamda turli ehtiyoj va talablarni qondirish orqali sayyohlar uchun yuqori darajadagi xizmat ko'rsatishni ta'minlaydi. Yuqori sifatli mehmonxonalar va kurortlar hashamatli dam olishni ta'minlasa, sanatoriyalar esa maxsus sog'lomlashtirish xizmatlarini taklif etadi. Turar joy turlarining ko'pligi sayyohlarga o'z ehtiyojlariga mos variantni tanlash imkonini beradi, bu esa ularning umumiy qoniqish darajasini oshiradi.

Sanatoriyalar, mehmonxonalar va dam olish maskanlarini qurish va ulardan foydalanish mahalliy hamda milliy iqtisodiyotga katta hissa qo'shadi. Bunday obyektlar qurilish ishchilari, mehmonxona xodimlari, xizmat ko'rsatuvchi provayderlar va boshqaruv mutaxassislari uchun ish o'rinlari yaratadi. Bundan tashqari, bu obyektlar atrofidagi mahalliy restoranlar, do'konlar va transport xizmatlari kabi kichik bizneslarni ham rag'batlantiradi va iqtisodiy faollikni oshiruvchi multiplikativ effektni yuzaga keltiradi.

Zamonaviy va yaxshi jihozlangan sanatoriyalar, mehmonxonalar va dam olish maskanlari, ayniqsa raqobat kuchli bo'lgan xalqaro turizm bozorlarida, sayyohlarni jalb qilishda muhim omil hisoblanadi. Yuqori sifatli infratuzilmalar sayyohlik manzilining o'ziga xosligini ta'minlaydi va ularni qulaylik, hashamat yoki betakror tajriba izlayotgan sayohatchilar uchun yanada jozibador qiladi. Shuningdek, bu kabi infratuzilma destinasiyaning brend imijini shakllantirishga va mustahkamlashga xizmat qiladi.

Hashamatli dam olish maskanlari, yuqori standartli mehmonxonalar va ixtisoslashtirilgan sanatoriyalar manzilni tashrif buyurishga arzigulik joy sifatida namoyon etadi. Tashrif buyuruvchilarning ijobiy tajribalari va yuqori qoniqish darajasi esa ijobiy fikrlar, og'zaki tavsiyalar va takroriy tashriflar orqali destinasiyaning obro'sini yanada mustahkamlaydi.

Zamonaviy turizm infratuzilmasi energiya tejovchi texnologiyalar, chiqindilarni kamaytirish dasturlari va ekologik toza qurilish materiallarini o'z ichiga olgan barqaror amaliyotlar asosida shakllantirilishi mumkin. Barqarorlikka ustuvor e'tibor qaratgan kurortlar va mehmonxonalar tabiiy resurslarni tejashga xizmat qiladi va turizm faoliyatining atrof-muhitga salbiy ta'sirini minimallashtiradi. Bunday yondashuv uzoq muddatli barqaror turizm rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi va ekologik jihatdan mas'uliyatli sayohatga qaratilgan global tendensiyalarga mos keladi.

Sanatoriyalar, mehmonxonalar va dam olish maskanlarini o'z ichiga olgan turistik obyektlarning diversifikatsiyalashgan rivojlanishi iqtisodiyotni ham diversifikatsiya qilishga hissa qo'shadi. Dam olish, biznes va sog'lomlashtirish turizmi kabi turli yo'nalishdagi tashrif buyuruvchilarni jalb qilish orqali destinatsiyalar o'z faoliyatini yagona iqtisodiy manbaga qaram holdan chiqaradi. Bunday diversifikatsiya esa global yoki mintaqaviy iqtisodiy tebranishlar sharoitida iqtisodiy barqarorlikni kuchaytiradi.

Yuqori sifatli turizm infratuzilmasiga sarmoya kiritish sayyohlarni jalb qilish, mahalliy iqtisodiyotni yuksaltirish va turizm sohasining uzoq muddatli muvaffaqiyatini ta'minlash uchun asosiy strategik yo'nalishdir.

Mazkur tadqiqotning maqsadi – turizm infratuzilmasi ko'rsatkichlari, xususan sanatoriyalar, mehmonxonalar va kurortlar soni bo'yicha o'rta muddatli prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot jarayonida quyida usullardan foydalanildi:

Tahlillar davomida vaqtli qatorlar ma'lumotlarini tahlil qilishda ARIMA (AutoRegressive Integrated Moving Average) modellari qo'llanildi. Ushbu modellarning tanlanishi ularning trend va mavsumiylikka ega bo'lgan ma'lumotlarni qayta ishlashga yuqori darajada mosligi bilan izohlanadi. ARIMA modellari o'tgan davrdagi ma'lumotlar asosida kelajakdagi qiymatlarni prognozlashga xizmat qiladi va quyidagi uchta asosiy komponentdan tashkil topadi:

AR (AutoRegressive) – avtoregressiv komponent: bu qism joriy qiymatlarni oldingi kuzatuvlar (kechikkan qiymatlar) bilan bog'laydi;

I (Integrated) – integratsiyalashgan komponent: vaqt qatorini statsionar holatga keltirish uchun ma'lumotlar farqlanadi (differencing), ya'ni statistik xususiyatlar vaqt o'tishi bilan o'zgarmaydi;

MA (Moving Average) – harakatlanuvchi o'rtacha komponent: bu modeldagi xatoliklar va ularning kechikkan qiymatlari o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qiladi.

ARIMA modeli $ARIMA(p,d,q)$ ko'rinishida belgilanadi, bunda:

- p – avtoregressiv komponentdagi kechikkan kuzatuvlar soni,
- d – ma'lumotlarni statsionar qilish uchun zarur farqlash darajasi,
- q – harakatlanuvchi o'rtacha komponentdagi oynaning o'lchami.

Model tanlash mezonlari

Model tanlashda vaqtli qatorlarning trendi, statsionarliligi, mavsumiyligi kabi xususiyatlar hisobga olindi. Jumladan:

$ARIMA(0,0,0)$ – kechikma, farqlash va harakatlanuvchi o'rtacha komponentlarsiz asosiy o'rtacha model bo'lib, faqat o'tmishdagi o'rtacha qiymatlarga asoslanadi;

$ARIMA(0,1,0)$ – faqat bir darajali farqlashni o'z ichiga oladi ($d=1$), bu esa seriyani statsionar holatga keltirib, trendni bartaraf etadi, AR yoki MA komponentlarni o'z ichiga olmaydi.



Tahlil va statistik ko'rsatkichlar

Tahlil SPSS 25.0 dasturida 12 yillik vaqt qatorlari asosida amalga oshirildi. Modellarning moslik darajasi quyidagi statistik mezonlar asosida baholandi:

Statsionar R-kvadrat – statsionar sharoitda model tomonidan tushuntirilgan dispersiya ulushi;

R-kvadrat – model tomonidan umumiy dispersiyaning qay darajada tushuntirilishini ko'rsatadi;

RMSE (Root Mean Squared Error) – prognoz xatolarining o'rtacha hajmini aniqlovchi o'lchov;

MAPE (Mean Absolute Percentage Error) – prognoz aniqligining foiz ko'rinishidagi ko'rsatkichi;

BIC (Bayesian Information Criterion) – model mosligi va murakkabligi o'rtasida muvozanatni aniqlashga xizmat qiladi.

Qoldiq tahlili

Modeldan so'ng qolgan xatoliklarni tahlil qilish uchun:

ACF (Avtokorrelyatsiya funksiyasi) – qoldiqlarda tizimli bog'liqlik mavjudligini aniqlaydi;

PACF (Qisman avtokorrelyatsiya funksiyasi) – qo'shimcha AR yoki MA komponentlarning zarurati bor-yoqligini aniqlashda qo'llaniladi.

Model qo'llanishi va prognozlash

2025–2030-yillar uchun prognozlash ishlarida har bir model bo'yicha yuqori va quyi ishonch oralig'idagi qiymatlar hisoblab chiqildi. Bu qiymatlar kelajakdagi ehtimoliy o'zgarishlar diapazonini baholash va prognoz ishonchligini tekshirish imkonini beradi.

Model_1: Turbaza joylari uchun ARIMA(0,0,0) Oddiy o'rtacha model bo'lib, statsionar seriyalar uchun qo'llaniladi. Ma'lumotlarda aniq trend yoki mavsumiylik mavjud emasligi aniqlangan.

Model_2: Sanatoriyalar uchun ARIMA(0,1,0) Bir martalik farqlash orqali trend bartaraf etilgan, bu model odatda o'sish yoki pasayish tendensiyasiga ega seriyalar uchun foydalidir (1-jadval).

1-jadval. Modelning tasviriy statistikasi.

			Model Type
Model ID	turbaza_joy_son	Model_1	ARIMA(0,0,0)
	sanatoriya	Model_2	ARIMA(0,1,0)
	mehmonxona	Model_3	ARIMA(0,1,0)
	kurort_joy_son	Model_4	ARIMA(0,1,0)

Model_3: Mehmonxonalar soni uchun ARIMA(0,1,0)

2030-yillarga qadar qurilishi rejalashtirilayotgan mehmonxonalar sonini prognozlash uchun uchinchi model sifatida ARIMA(0,1,0) tanlandi. Bu model Model_2 bilan bir xil tuzilishga ega bo'lib, u ham farqlanishning birinchi darajasini ($d=1$) o'z ichiga oladi. Modelda avtoregressiv (AR) yoki harakatlanuvchi o'rtacha (MA) komponentlar mavjud emas. Bu yondashuv mehmonxonalar sonining vaqt qatori asosida kelajakdagi o'zgarishlarini prognozlashga mo'ljallangan.

Modelda farqlanish ($d=1$) komponentining mavjudligi, ma'lumotlardagi trendni statsionar holatga keltirish va vaqt o'tishi bilan o'zgaruvchanlikni bartaraf etishga xizmat qiladi. Bu esa, mavjud tarixiy ma'lumotlar asosida barqaror prognozlar ishlab chiqish imkonini beradi. Shuningdek, bu model orqali turar joy inshootlarining kelajakdagi dinamikasini aniqlash mumkin.

Model_4: Kurort joylari soni uchun ARIMA(0,1,0)

To'rtinchi model – Model_4 ham ARIMA(0,1,0) ko'rinishida tuzilgan bo'lib, Model_2 va Model_3 bilan bir xil tuzilishga ega. U kurort joylari soni (yoki shunga o'xshash ko'rsatkichlar) bo'yicha vaqtli qatorlarni tahlil qilish va prognozlash uchun ishlatiladi.

Bu modelda $d=1$ farqlanish komponenti ma'lumotlardagi o'sish yoki kamayish tendensiyalarini hisobga oladi va ularni barqarorlashtirish imkonini beradi. AR va MA komponentlarining mavjud emasligi modelni soddalashtiradi, bu esa uzoq muddatli tendensiyalar asosida prognoz natijalarining umumiy yo'nalishini aniqlashga xizmat qiladi. Model o'rta va uzoq muddatli rivojlanish prognozlarini aniqlashtirishga yordam beruvchi asosiy vositalardan biri hisoblanadi (2-jadval).

2-jadval. Modelning moslik statistikasi.

Fit Statistic	Mean	SE	Min	Max	Percentile				
					5	25	50	75	95
Stationary R-squared	.829	.162	.609	.999	.609	.668	.854	.964	.999



R-squared	.981	.016	.959	.999	.959	.965	.983	.995	.999
RMSE	306.093	333.661	6.365	660.973	6.365	14.016	278.517	625.747	660.973
MAPE	2.106	1.201	.577	3.327	.577	.879	2.261	3.179	3.327
Normalized	9.915	4.794	4.116	13.889	4.116	5.047	10.829	13.871	13.889

2-jadvalga ko'ra, statsionar R-kvadrat model vaqt qatori ma'lumotlarining statsionar holatidagi dispersiyasini qanchalik yaxshi tushuntirayotganini o'lchaydi. Statsionar holatga asl ma'lumotlarni keltirish farqlash, tendensiyalar va mavsumiylikni olib tashlash orqali amalga oshiriladi. O'rtacha qayd etilgan 0,829 qiymat modelning statsionar ma'lumotlardagi dispersiyaning 82,9 foizini izohlashga qodir ekanini ko'rsatadi. Bu yuqori ko'rsatkich bo'lib, model farqlangan (ya'ni statsionar) vaqt qatoridagi naqshlarni aniqlashda kuchli tushuntirish salohiyatiga ega ekanligini anglatadi.

Standart xato (SE) – bu standart og'ish bo'lib, turli ma'lumotlar to'plami yoki vaqt oralig'ida statsionar R-kvadrat qiymatlarining o'zgaruvchanligini baholaydi. Yuqori standart xatolik model mosligi statistikalarida ko'proq o'zgaruvchanlikni anglatadi, pastroq qiymatlar esa ma'lumotlardagi izchillik darajasining yuqoriligini bildiradi.

Minimum va maksimum qiymatlar orasida eng past statsionar R-kvadrat 0,609 ni tashkil qiladi, bu esa ayrim holatlarda model faqat dispersiyaning 60,9 foizini tushuntirib bera olishini anglatadi. Eng yuqori qiymat 0,999 ga teng bo'lib, model ba'zi holatlarda statsionar ma'lumotlardagi farqni deyarli mukammal izohlashga qodir ekanini ko'rsatadi.

ARIMA modeli statistik ma'lumotlarning vaqt qatori asosida bashorat qilinishida har bir modelning ishlash samaradorligi haqida tasavvur beradi. Barcha modellar uchun statsionar R-kvadrat va oddiy R-kvadrat ko'rsatkichlarining yuqoriligi ularning dispersiyani tushuntirish nuqtayi nazaridan ma'lumotlarga yaxshi mos kelishini bildiradi.

RMSE qiymatlari sezilarli farq qiladi: Model_1 va Model_4 nisbatan yuqori qiymatlarga ega bo'lib, ular prognoz xatoliklarining kattaligini bildiradi. Model_2 va Model_3 esa pastroq RMSE qiymatlari bilan aniqroq prognozlarni ko'rsatadi (3-jadval).

3-jadval. Prognoz qilinayotgan model statistikasi


	Stationary R-squared	R-squared	RMSE	MAPE	MAE	MaxAPE	MaxAE	Normalized BIC	Sig.
turbaza_joy_son-Model_1	.999	.999	520.066	.577	204.440	2.324	805.286	13.889	00.0
sanatoriya-Model_2	.847	.959	6.365	2.734	4.972	7.648	11.167	4.116	0.00
mehmonxona-Model_3	.609	.983	36.968	3.327	23.667	10.056	62.800	7.841	0.00
kurort_joy_son-Model_4	.860	.983	660.973	1.788	407.864	5.848	1070.000	13.816	0.00

O'zbekistonda turizm infratuzilmasi rivojlanishining ko'p omilli ekonometrik modellashtirish asosida prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqishda MAPE qiymatlari barcha modellar uchun past, biroq Model_3 prognozlarda kamroq aniqlikni aks ettiruvchi eng yuqori xatolik foizini qayd etmoqda. Normallashtirilgan BIC qiymatlari esa Model_1 va Model_4 ning Model_2 hamda Model_3 bilan solishtirilganda nisbatan murakkabroq yoki haddan tashqari mos keluvchi model bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.

Barcha modellar uchun testing $p < 0.00$ qiymatlari ularning statistik jihatdan ahamiyatli ekanligini bildiradi. Bu degani, modellar ishlashi faqat tasodif tufayli yuzaga kelgan emas, balki haqiqiy statistik bog'liqlik mavjud.

Hisoblab topilgan qoldiq avtokorrelyatsiya funksiyasi (ACF) model qoldiqlarining (xatolarining) strukturasi haqida tasavvur beradi. ACF qiymatlarining past bo'lishi model qoldiqlari orasida bog'liqlik yo'qligini, ya'ni ular oq shovqin (white noise) ga o'xshashligini bildiradi. Aksincha, yuqori darajadagi ACF qiymatlari modelning qoldiqlari orasida sezilarli bog'liqlik mavjudligini va modelning past darajada mos kelishini ko'rsatadi.

Qoldiq ACF turli kechikishlardagi qoldiqlar o'rtasidagi korrelyatsiyani o'lchaydi. Keling, ACF qiymatlari va ularning standart xatolari (SE) asosida har bir model uchun tafsilotlarni alohida tahlil qilamiz (1-rasm).



1-rasm. Avtokorrelyatsiya funktsiyasi (ACF) va qisman avtokorrelyatsiya modelning qoldiqlari (xatoliklari).

Muhim avtokorrelyatsiya 2 va 4 kechikishlardagi ACF qiymatlarining noldan sezilarli darajada farq qilishi orqali aniqlanadi. Hisoblangan modelda 2-kechikishdagi (lag) ACF qiymati $-0,645$ ni tashkil qiladi, bu esa uning SE (0,282) ga nisbatan ancha katta ekanini ko'rsatadi. Bu holat 2-tartibda sezilarli salbiy avtokorrelyatsiyadan dalolat beradi.

Boshqa kechikishlardagi ACF qiymatlari nolga yaqin va xatoliklar chegarasida bo'lib, bu qoldiqlarning bu kechikishlarda o'zaro bog'liqligi yo'qligini bildiradi. Biroq 6 va 7-kechikishlar uchun ACF qiymatlari ham noldan sezilarli farq qiladi: 6-lagda kuchli salbiy avtokorrelyatsiya ($-0,341$), 7-lagda esa ijobiy avtokorrelyatsiya ($0,113$) kuzatiladi. Ushbu qiymatlar standart xatolik chegarasidan tashqarida bo'lib, model mazkur kechikishlardagi qoldiqlarni to'liq hisobga olmayotganini ko'rsatadi.



Shuningdek, 8-kechikishdagi ACF qiymati $-0,389$ bo'lib, bu ham noldan sezilarli farq qiladi va SE (0,306) ga nisbatan kattaligini inobatga olganda, 8-tartibdagi sezilarli salbiy avtokorrelyatsiyani bildiradi. Qolgan kechikishlarda ACF qiymatlari nolga yaqin va standart xatolik chegaralarida bo'lib, model u yerda izchillikka erishganini ko'rsatadi. Shunga qaramay, aynan 8-lagdagi muhim avtokorrelyatsiya modelning barcha qoldiq qiymatlarini to'liq hisobga olmayotganini bildiradi.

Turbaza joylar soni modeli uchun: 2 va 4-kechikishlarda sezilarli avtokorrelyatsiya aniqlangan. Bu model asosiy vaqt qatori dinamikasini to'liq ushlay olmasligini anglatadi. Boshqa kechikishlar esa nolga yaqin bo'lib, bu qoldiqlarning oq shovqinga o'xshashligini bildiradi.

Sanatoriya – Model_2: 6 va 7-laglarda sezilarli avtokorrelyatsiya mavjud. Bu kechikishlardagi ayrim naqshlar model tomonidan hisobga olinmayotgan bo'lishi mumkin, bu esa umumiy moslikka salbiy ta'sir qiladi.

Model_3: 1, 6 va 7-kechikishlarda muhim avtokorrelyatsiya aniqlangan. Ayniqsa, 1-lagdagi kuchli ijobiy avtokorrelyatsiya ushbu model tomonidan to'liq hisobga olinmagan bo'lishi mumkin.

Kurort joy soni – Model_4: 8-kechikishda sezilarli avtokorrelyatsiya kuzatilmoqda. Bu esa model aynan shu lagda qoldiqlarni yetarlicha aniqlikda ushlay olmaganini ko'rsatadi.

Prognozlash – bu model yordamida tarixiy ma'lumotlar asosida kelajak qiymatlarini bashorat qilish jarayonidir. Prognoz natijalari odatda quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi:

kelajak davrlar uchun bashorat qilingan qiymatlar;

haqiqiy qiymatlar tushishi kutilayotgan ishonch oraliqlari (UCL – yuqori chegarasi, LCL – quyi chegarasi).

UCL va LCL qiymatlari barcha yillar davomida deyarli o'zgarmagan, bu esa prognozda noaniqlik darajasi barqaror qolganini ko'rsatadi. Intervallar 34,182 dan 36,727 gacha bo'lib, bu oraliqda haqiqiy qiymatlar ma'lum darajadagi ishonch bilan joylashishi kutiladi.

Olingan prognoz qiymatlari asosan barqaror xarakterga ega bo'lib, prognoz davrining oxiriga kelib biroz pasayish kuzatilgan. Ishonch oraliqlari esa vaqt o'tishi bilan kengaygan, bu esa prognoz davomida noaniqlik oshib borayotganini ko'rsatadi. Demak, prognoz davri cho'zilgan sari noaniqlik kuchayadi va haqiqiy qiymatlar tushishi mumkin bo'lgan diapazon kengayadi (4-jadval).

4-jadval. O'zgaruvchilarning o'rta davr oralig'ida hisoblab topilgan prognoz ko'rsatkichlari.

Model		2025	2026	2027	2028	2029	2030
turbaza_joy_son-Model_1	Forecast	35454	35454	35454	35454	35454	35454
	UCL	36727	36727	36727	36727	36727	36727
	LCL	34182	34182	34182	34182	34182	34182
sanatoriya-Model_2	Forecast	266	275	283	291	299	307
	UCL	291	303	315	326	337	347
	LCL	242	246	251	256	262	267
mehmonxona-Model_3	Forecast	1409	1489	1568	1646	1725	1802
	UCL	1554	1656	1755	1851	1946	2039
	LCL	1264	1321	1381	1442	1503	1566
kurort_joy_son-Model_4	Forecast	27652	27652	27652	27652	27651	27651
	UCL	30292	30700	31060	31385	31684	31963
	LCL	25012	24603	24243	23918	23619	23340

Prognoz barqarorligi va tendentsiyalar tahliliga ko'ra, Model_1 va Model_4 doimiy qiymatlar bilan barqarorlikni bildiradi, Model_2 va Model_3 esa o'sish tendentsiyasini aks ettiradi. Vaqt o'tishi bilan ishonch oraliqlari qanday o'zgarayotgani prognoz ufqi ortishi bilan noaniqlik darajasining oshishini ko'rsatadi. Doimiy qiymatlarni bashorat qiluvchi modellar prognoz ishonchliligi va barqarorligini bildiradi, tendentsiyalarni ko'rsatuvchi modellar esa o'sish yo'nalishini anglatadi.

Prognozlash – bu model yordamida tarixiy ma'lumotlar asosida kelajakdagi qiymatlarni bashorat qilish jarayoni bo'lib, u quyidagilarni o'z ichiga oladi:

kelajak davrlar uchun hisoblab chiqilgan bashorat qiymatlari;


haqiqiy qiymatlar tushishi mumkin bo'lgan ishonch oraliqlari (yuqori va pastki chegaralar).

2025–2030-yillar oralig'ida yangi tur bazalarni barpo etishga doir prognoz qilingan qiymatlar modelga ko'ra barqarorlikni ko'rsatmoqda: qiymat o'zgarishsiz qoladi, ya'ni hech qanday o'sish, pasayish yoki tebranishlar kuzatilmaydi.

Sanatoriyalar va mehmonxonalar qurilishi bo'yicha esa, 2025–2030-yillar davomida aniq o'sish tendentsiyasi kuzatiladi. Har yili prognoz qilingan qiymat muntazam ortib boradi va kutilayotgan o'sish bosqichma-bosqich



ravishda hisoblab chiqilgan. Bu holat mazkur infratuzilma obyektlari bo'yicha rivojlanish strategiyasining prognozli, optimistik xarakterga ega ekanligini bildiradi (2-rasm).



1-rasm. 2010–2030 yillar uchun turizm infratuzilmasi obyektlari sonining prognozi va tendensiyalari (tur baza, sanatoriya, mehmonxona, kurort joylari bo'yicha tahlil).

Prognoz qiymatlari 2025–2030-yillar davomida har yili oshib boradi. Bu esa ko'rib chiqilayotgan o'zgaruvchining barqaror o'sishi kutilayotganini ko'rsatadi. O'sish izchil, biroq bosqichma-bosqich bo'lib, har yili prognoz qiymati taxminan 80 dan 90 birlikka ortib boradi. Bu esa vaqt o'tishi bilan o'sish sur'ati biroz tezlashayotganidan dalolat beradi.

Kurortlar sonining prognoz qiymatlari 2025–2028-yillar oralig'ida 27 652 birlikda deyarli doimiy bo'lib turadi, 2029 va 2030-yillarda esa 27 651 birlikka oz miqdorda pasayish kuzatiladi. Bu juda minimal o'zgarish bilan barqaror prognozni bildiradi. Oxirgi ikki yildagi kichik pasayish model bo'yicha o'zgaruvchining prognoz davrida deyarli doimiy bo'lib qolishini anglatadi.

Model_1 va Model_4 doimiy qiymatlar bilan barqarorlikni bildiradi. Masalan, Turbaza_joy_son uchun Model_1 2025–2030-yillar oralig'ida 35 454 birlikda doimiy qiymatni prognoz qilmoqda, bu esa ushbu davrda o'zgarishlar kuzatilmassligini anglatadi.



Sanatoriya – Model_2 2025-yilda 266 dan 2030-yilda 307 gacha bo'lgan bosqichma-bosqich o'sishni prognoz qiladi. Bu o'sish vaqt o'tishi bilan izchil va tizimli tarzda amalga oshishini ko'rsatadi.

Model_3 o'zgaruvchining barqaror o'sishini prognoz qilmoqda: 2025-yilda 1,409 dan boshlanib, 2030-yilda 1,802 ga yetadi. Bu ijobiy va izchil o'sish tendentsiyasini bildiradi.

Kurort_joy_son – Model_4 2025–2028-yillar davomida 27 652 birlikda barqaror qiymatni, 2029–2030-yillarda esa 27 651 ga oz miqdorda pasayishni prognoz qilmoqda. Bu esa faqat kichik tebranishlar bilan umumiy barqarorlikni aks ettiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda 2030-yilgacha bo'lgan prognozlar asosida tahlil qilingan o'zgaruvchilar umumiy tendentsiyalarni aniqlash imkonini berdi. Turizm infratuzilmasi, sanatoriyalar, mehmonxonalar va kurort joylari bo'yicha tuzilgan prognozlar, mamlakatda turizm sohasida barqaror o'sish va rivojlanish tendentsiyasi mavjudligini ko'rsatmoqda. Ba'zi o'zgaruvchilar esa aynan barqarorlikni ta'minlaydi.

Barqaror o'sish prognozlari turizm infratuzilmasining uzoq muddatli mustahkamligini tasdiqlaydi. Xususan, sanatoriyalar va mehmonxonalar sektorida kengayish jarayonlari sezilarli bo'lib, bu ijobiy tendentsiyalarni aks ettiradi. Kurort joylarida esa minimal o'zgarishlar kuzatilmoqda, bu esa mavjud resurslarning saqlanib qolayotganini bildiradi.

Umuman olganda, mazkur prognozlar O'zbekistonda turizm infratuzilmasi va mehmonxona sohasida kelajakda ijobiy o'zgarishlar ro'y berishini ko'rsatadi. Shuningdek, bu tahlillar davlat siyosati va strategik rejalashtirish uchun muhim ilmiy asoslarni taqdim etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Davlat statistika qo'mitasining "O'zbekiston iqtisodiyotining asosiy ko'rsatkichlari" axborotnomasi T : Goskostat, 2020. 121 b.
2. Safarov B., Janzakov B. Integral indeks yordamida turizm korxonalari raqobatbardoshlikni o'lchash/ Geojournal of Tourism and Geosites this link is disabled, 2021, 37(3), P. 768–774.
3. A.Hayrullayev. THEORETICAL ASPECTS OF HEALTH TOURISM IN UZBEKISTAN. Journal of Management Value & Ethics. April special issue. 2023 Vol. 13 No.02. -147-153 pp.
4. Ergashev A, Olimjonova F. Tibbiy turizmning rivojlanish istiqbollari (chet el tajribalari asosida). FAN, TA'LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIYA. Nashr: 2 / 03(2023). <https://mudarrisziyo.uz>
5. Madiyarova M.H. Sog'lomlashtirish turizmining mohiyati va uni xalqaro tajriba asosida o'zbekistonda rivojlantirish imkoniyatlar. International journal Science and Technology. Vol. 1 No. 16 (2024).
6. Vayskulov R.A., Shaymanova N.Y. O'zbekistonda rekreatsiya turizmini rivojlantirish imkoniyatlari. «Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» jurnali. Tom 1 № 7 (2023)
7. A.N. Norchayev. Zamonaviy turizm infratuzilmasining shakllanish va rivojlanish tendentsiyalari. i.f.d. (DSc) ilmiy darajasi olish uchun yozilgan dissertatsiya. –T. TDIU, 2021 yil. 254 b.
8. Norchayev A.N. Turizm raqamli innovatsion texnologiyalarni joriy qilish yo'nalishlari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" Ilmiy elektron jurnali.
9. № 2, mart-aprel, 2020 yil. 216-222 betlar.
10. www.lex.uz.
11. www.unwto.org.
12. www.uzbektourism.uz.
13. www.stat.uz.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>